



UDK: 811.411.21'367.4:81'367.625(092)

Avazbek OCHILOV,
O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: avazbekochilov2001@gmail.com

O'zMU professori M.Kurbanova taqrizi asosida

IBN MOLIK "ALFIYYA" ASARIDA KELITIRGAN YORDAMCHI FE'LLARNING MUSTAQIL MA'NODA KELISH HOLATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ibn Molikning "Alfiyya" asarida keltirilgan o'n uchta fe'lining morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu fe'llarning mustaqil hamda yordamchi vazifalarda qo'llanishi, ularning gap strukturasidagi o'rni hamda zamon va holatni ifodalashdagi funksional farqlari yoritiladi. Maqolada *كان, صار, ظل, أصبح, أمسى, بات, ليس, زال, برح, فتي, انفك* kabi fe'llarning turlari, qo'llanilish holatlari keng tahlil qilinadi. Muallif ushbu fe'llarni nafaqat zamon bildiruvchi birliklar, balki ot kesimli gaplarni fe'l asosidagi tuzilmalarga aylantiruvchi grammatik markaz sifatida baholaydi. Shuningdek, maqolada Basra va Kufa nahviy maktablari talqinining tafovutlariga e'tibor qaratilib, "Kana va unga o'xshash fe'llar"ning arab tili grammatik tizimidagi nazariy ahamiyati yoritiladi. Natijada "Alfiyya" arab nahv ilmining chuqur grammatik asoslarini ifodalovchi metodik manba sifatida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ibn Molik, Alfiyya, kana va unga o'xshash fe'llar, arab tili grammatikasi, yordamchi fe'llar, Basra va Kufa maktablari, morfologiya, sintaksis, semantika, fe'l tizimi, zamon va holat ifodasi, nahv ilmi.

THE CASES OF INDEPENDENT USAGE OF AUXILIARY VERBS PRESENTED IN IBN MALIK'S "ALFIYYA"

Annotation

This article analyzes the morphological, semantic, and syntactic features of thirteen verbs presented in Ibn Malik's Alfiyya. The study explores how these verbs function both independently and as auxiliaries, highlighting their role within sentence structures and their functional distinctions in expressing tense and aspect. The verbs *كان, صار, ظل, أصبح, أمسى, بات, ليس, زال, برح, فتي, انفك* are thoroughly examined in terms of their types and usage contexts. The author considers these verbs not merely as temporal indicators but as grammatical nuclei that transform nominal sentences into verbal constructions. Furthermore, the article pays attention to the interpretative differences between the Basra and Kufa grammatical schools, shedding light on the theoretical significance of "kāna and its sisters" within the Arabic grammatical system. As a result, Alfiyya is interpreted as a methodological source that reflects the deep grammatical foundations of Arabic syntax.

Keywords: Ibn Malik, Alfiyya, kana and similar verbs, Arabic grammar, auxiliary verbs, Basra and Kufa schools, morphology, syntax, semantics, verb system, expression of tense and mood, nahw science.

THE CASES OF INDEPENDENT USAGE OF AUXILIARY VERBS PRESENTED IN IBN MALIK'S "ALFIYYA"

Аннотация

В данной статье анализируются морфологические, семантические и синтаксические особенности тринадцати глаголов, представленных в труде Ибн Малика "Альфия". В исследовании рассматривается употребление этих глаголов как в самостоятельной, так и во вспомогательной функции, их роль в структуре предложения, а также функциональные различия при выражении времени и состояния. Подробно анализируются глаголы *كان, صار, ظل, أصبح, أمسى, بات, ليس, زال, برح, فتي, انفك* - их типы и контексты употребления. Автор рассматривает данные глаголы не только как временные показатели, но и как грамматические центры, преобразующие именные предложения в глагольные конструкции. Кроме того, внимание уделяется различиям в толкованиях Басрийской и Куфийской грамматических школ, что позволяет раскрыть теоретическое значение группы глаголов "كَانَ и её аналогов" в системе арабской грамматики. В итоге "Альфия" рассматривается как методологический источник, отражающий глубокие грамматические основы арабского синтаксиса.

Ключевые слова: Ибн Малик, Альфия, кана и подобные глаголы, арабская грамматика, вспомогательные глаголы, школы Басры и Куфы, морфология, синтаксис, семантика, глагольная система, выражение времени и наклонения, наука нахв.

Kirish. Arab tili grammatikasida yordamchi va mustaqil fe'llarning o'rni eng muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda Ibn Molikning "Alfiyya" asari alohida ahamiyat kasb etib, unda fe'l turkumining morfologik, semantik va sintaktik jihatlari tizimli ravishda yoritilgan. Ayniqsa, "kana va unga o'xshash fe'llar" deb ataluvchi guruh - *كان, صار, ظل, أصبح, أمسى, بات, ليس, زال, برح, فتي, انفك* kabi birliklar - nafaqat zamon va holatni ifodalashda, balki ot kesimli

gaplarni fe'l asosidagi tuzilmalarga aylantirishda ham muhim grammatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fe'llarning semantik chegaralari, tuslanish xususiyatlari va ularning gap strukturasiga ta'siri masalasi arab nahvshunosligida muhim o'rinni egallaydi. Mazkur tadqiqot ushbu o'n uch fe'lining morfologik va sintaktik xususiyatlarini, ularning mustaqil hamda yordamchi vazifalarda qo'llanishini tahlil etadi. Shuningdek, Basra va Kufa grammatik maktablari o'rtasidagi

talqin farqlari solishtirilib, bu fe'llarning arab tili grammatik tizimidagi nazariy ahamiyati yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. G'arb olimlaridan F.H. Dieterici[1], S. Glazer[2], K. Versteeg[3], S. Haryonto[4], J. Stephen[5] kabi tadqiqotchilar o'z maqolalarida Ibn Molikning arab olamidagi yuksak o'rni e'tirof etish bilan birga Ibn Molikning qoidalarida Basra va Kufa maktablari unsurlari qiyosiy o'rganishgan; Arab olimlaridan esa A. Dabboh[6], B. Zarkan[7], A. H. Faqih[8], S. Zahroniy[9] "Alfiyya" asarida qo'llanilgan fe'llarning turli kelishiklarda kelishi sabablari, ularning baytlarda tutgan sintaksis o'rni va semantikasi borasida zamonaviy grammatik mezonlarga qiyoslagan holda magistrlik dissertatsiyalarini yoqlash bilan bir qatorda bir necha maqolalar ham chop etishgan. Yuqorida sanab o'tilgan Phd, magistrlik dissertatsiyalari hamda maqolalarning ba'zilarida "Alfiyya"da berilgan كان (kana) va unga o'xshash fe'llar qoidalar boshqa kitoblarga qiyoslanib, unga nisbatan tor doirada qisqa izoh berib o'tib ketilgan yoki ularga tarixiy aspekt jihatidan yondashilgan bo'lsada, aynan shu mavzuni atroflicha yoritgan ilmiy ishni ko'rmaymiz.

Muhokama. Ibn Molik asarda ifoda etgan o'n uch fe'lning ba'zilar ham mustaqil ma'noda, ham yordamchi fe'l ma'nosida kelishi mumkin. Agar gap egasining o'zi bilan ishlatilganda ma'no tugal bo'lsa, ushbu fe'llar mustaqil vazifada, agar ma'no tugal bo'lmasa, yordamchi vazifada keladi[10]:

كان fe'li "bo'ldi" ma'nosida mustaqil fe'l sifatida ishlatilishi mumkin.

Masalan:

أمس كنت في القرية

"Kecha qishloqda bo'ldim"[11].

Ushbu fe'l ko'proq yordamchi fe' shaklida qo'llanib, ot kesimli gaplar tarkibida kesimga bog'lanib keladi.

ظل fe'li ham mustaqil – "davom etdi" ma'nosida ishlatilishi mumkin:

ظل الحر

"Issiq havo davom etdi".

Yordamchi ma'noda kelsa, o'tgan zamon yoki hozirgi-kelasi zamon shakllarida qo'llanishiga ko'ra ot kesimli gapning kesimi kunduzgi vaqtga xoslab qo'yadi. Masalan:

ظل الجو معتدلاً

"Ob-havo kunduzi mo'tadil bo'ldi".

Gohida esa صار – "aylandi" ma'nosida qo'llaniladi:

صار وجهه مسوداً

"Yuzi qoraga aylandi (qoraydi)".

أصبح fe'li mustaqil vazifada kelsa "tong orttirmoq" ma'nosida, أصبح fe'li esa "choshgoh vaqtiga kirdi" ma'nosida, أمسى – "tun vaqtiga kirdi" ma'nosida, بات – "tunadi" ma'nosida kelishi mumkin:

قد أصبحت قبل نصف ساعة

"Yarim soat oldin tong ottirdim (uyg'ondim)".

أضحى النائم

"Uyqudagi kishi choshgoh vaqtiga kirdi".

أمسى الحارس

"Qo'riqchi tun vaqtiga kirdi".

بات الطائر

"Qush tunadi".

Yordamchi fe'l vazifasida kelsa, har bir fe'l ot kesimli gapning kesimini o'zi anglatgan vaqtiga xoslab ifoda etadi:

أصبح الساهر متعباً

"Tunda bedor bo'lgan kishi subh vaqtida charchagan edi".

أضحى الزارع منكبا على زراعته

"Dehqon choshgoh vaqtida zirot yeriga qaraydi".

أمسى أحمد متعباً

"Ahmad kechasi paytida charchagan edi".

بات القائد ساهراً

"Yo'lboshchi tunni bedor o'tkazdi".

صار fe'li mustaqil vazifasida ishlatilsa, "qaror topdi"

ma'noda keladi:

صار الأمر إليك

(Ish senda qaror topdi (vaziyat sening qo'lingga o'tdi)).

Yordamchi fe'l vazifasida kelsa, "aylandi" ma'nosida qo'llanadi:

صارت الشجرة باباً

"Daraxt eshikka aylandi"[12].

Ba'zi olimlar ليس so'zini fe'l turkumidan deb emas, balki predloglardan deb hisoblashgan. Dalil sifatida ليس so'zi – inkor predlogi o'rinda kela olishi, bu so'zdan grammatik qoidalar muvofiq boshqa so'zlar yasab bo'lmasligi, jamiki fe'llar kabi "masdar" – harakat nomidan olinmagani, hozirgi-kelasi zamon shakli mavjud emasligini aytishgan. Forisiy, Abu Bakr ibn Shuqayr ham ushbu toifadan sanaladi[13].

Biroq boshqa olimlar uning fe'l ekanini isboti o'laroq bir qancha dalillarni keltirishgan. Jumladan, ayol jinsini ifodalovchi qo'shimcha – "ta'u – ta'nis"ni qabul qilgan har qanday so'z fe'l hisoblanishi to'g'risida qoida mavjud. Shunga ko'ra, ليس so'ziga yuzlanilganda, uning shaxs va jinsda tuslanganini ko'rish mumkin: ليست لست. Masalan:

ليست فاطمة مجتهدة

"Fotima tirishqoq emas"[14].

ليس fe'li mustaqil vazifada kelmaydi. Yordamchi fe'l vazifasida kelsa, ot kesimli gap kesimiga hozirgi zamon inkor ma'nosini beradi:

ليس القطار مقبلاً

"Poyezd kelmayapti".

زال fe'lining uch xil shakli mavjud:

زال – يزال – يزيل – "ketdi" ma'nosidagi fe'l

زال – يزل – يزل – "yo'q bo'ldi" ma'nosidagi fe'l

زال – يزل – يزل – "To'xtadi" ma'nosidagi fe'l

Dastlabki ikki fe'l mustaqil, uchinchi esa yordamchi, kan fe'lining sherigi hisoblanadi[15].

Ushbu fe'l ham inkor ma'noni anglatuvchi so'z bilan birga mustaqil ma'noda ishlatilmaydi[16].

فتى fe'liga kelsak, uni uch xil shaklda o'qish mumkin

فتى، فتى، فتى. [17] - فتى فتى فتى

فتى fe'li mustaqil vazifada kelib, "unutmoq" ma'nosini anglatadi:

فتى الصانع عن شيء

"Duradgor narsasini unutdi".

Yordamchi fe'l vazifasida esa زال fe'li bilan bir xil ishlab, "davom etdi" ma'nosini anglatadi.

زال fe'li mustaqil vazifada kelsa, "ko'chmoq",

"ketmoq" ma'nosini anglatadi:

و إذ قال موسى لفته لا أبرح حتى أبلغ مجمع البحرين أو أمضي

حقاً[18]

Muso o'z yigitiga: "Ikki dengiz jamlangan joyga yetmagunimcha, yillarni o'tkazsam ham, ketmayman", deganini esla"[19].

Yordamchi fe'l ma'nosida kelsa, زال fe'li bilan bir ma'noni bildiradi.

انفك fe'li mustaqil vazifada qo'llansa, "ajralmoq"

ma'nosini bildiradi:

فككت حلقات السلسلة فانفكت

"Zanjir xalqalarini ajratdim va u ajraldi".

Ushbu fe'l ham yordamchi fe'l vazifasida زال bilan birdek ishlatiladi.

دام fe'li yordamchi fe'l vazifasidagina qo'llanilib,

"davomida" ma'nosini anglatadi:

يفيد الأكل ما دام المرء جائعاً

"Modomiki, kishi och ekan, yemoq u uchun foydali bo'ladi"[20].

Mazkur o'n uch fe'l tuslanishiga ko'ra uch turga bo'linadi:

Mutlaq tuslanmaydigan tur: faqatgina o'tgan-zamon shaklida qo'llanilib, morfologik qoliplar asosida u fe'llardan boshqa ismlar yasalmaydi: ليس fe'li barcha olimlar tomonidan ushbu turdan deb bilinsa, دام fe'li mashhur olimlarning qarashiga ko'ra bu turga kiradi.

Qisman to'liq tuslanadigan tur: Ushbu turdan o'tgan, hozirgi-kelasi zamon, buyruq fe'l shakllari tuslanadi, sifatdosh otlari yasaladi. Biroq majhul fe'l ma'nosini anglatuvchi ot va fe'ldan yasaladigan boshqa otlar yasalmaydi. Ushbu turga quyidagi fe'llar kiradi: صار, ظل, بات, فتي, انكاف.

Qisman tuslanadigan tur: Ushbu turga to'rtta davomiylik fe'llari kirib, o'tgan, hozirgi-kelasi zamon shakllarida tuslanadi[21].

Ibn Molikning "Alfiyya" asarida كان (kana) va unga o'xshash fe'llarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi arab tilshunosligi tarixida grammatik kategoriya sifatida ushbu fe'llarning o'ziga xos o'rni va ahamiyatini ochib beradi. Muallif bu fe'llarni faqat zamon ifodalovchi yordamchi birliklar sifatida emas, balki gap strukturasiiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi markaziy komponentlar sifatida baholaydi. "Kana va unga o'xshash fe'llar" deb yuritiluvchi fe'llar (jumladan, صار (soro), أصبح (Asbaha), ليس (laysa), ما زال (ma zala) kabi) orqali ot kesimli gaplar fe'lga asoslangan konstruksiyalarga aylantiriladi va bu orqali gapda zamon, davomiylik va holat nuqtai nazaridan tafovutlar aniqlanadi.

Ibn Molik ushbu fe'llarning tuslanish shakllari, mustaqil yoki yordamchi vazifada ishlatilishi, semantik chegaralari, shuningdek, ba'zi fe'llarning morfologik chegaralanganligi (masalan, laysa, ma dama) haqida ham keng qamrovli izohlar bergan. Asarda ushbu fe'llarning turli zamon va holatlarda qanday ishlatilishi, ayrim fe'llarning yordamchi yoki mustaqil fe'l bo'lish imkoniyati, shuningdek, Basra va Kufa nahviy maktablari o'rtasidagi talqin farqlari orqali klassik nahviy tafakkur chuqur yoritilgan. Shunday qilib, "Alfiyya" nafaqat qoidalar to'plami, balki arab fe'l tizimining nazariy asoslarini ilmiy-metodik yondashuvda ifodalovchi muhim tilshunoslik manbaidir.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Ibn Molik "Alfiyya" asarida tahlil qilgan "kana va unga o'xshash

fe'llar" arab tilining grammatik tizimida o'ziga xos murakkab kategoriyaning tashkil etadi. Ushbu fe'llar yordamida gapda zamon, davomiylik, holat va harakatning dinamik xususiyatlari aniq ifodalanadi. Tahlil jarayonida o'n uch fe'lning morfologik tuzilishi, semantik chegarasi va sintaktik funksiyasi o'zaro taqqoslandi. Aniqlanishicha, kana, sara, asbaha, adha, amsa, bata, zala kabi fe'llar ikki xil - mustaqil va yordamchi vazifalarda ishlatilishi mumkin. Bunda ularning ma'nosi kontekstdan kelib chiqib o'zgaradi: mustaqil holatda harakatni bildirsa, yordamchi holatda ot kesimli gaplarda zamon yoki holatni ko'rsatadi.

Shuningdek, laysa va dama fe'llari faqat yordamchi vazifada kelishi va morfologik tuslanish jihatdan chegaralanganligi aniqlangan. Qisman tuslanadigan fe'llar — zala, bariha, fati'a, infakka — davomiylik va uzluksizlikni ifodalovchi grammatik birliklar sifatida o'ziga xos o'ringa ega. Natijada Ibn Molik tomonidan berilgan tizim arab tili fe'l kategoriyasining zamon, holat va harakat o'rtasidagi murakkab munosabatlarini ilmiy asosda yoritib beradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ibn Molikning "Alfiyya" asari arab tili grammatikasida yordamchi fe'llarning nazariy asoslarini chuqur yoritgan ilmiy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Muallif "kana va unga o'xshash fe'llar" orqali arab tili fe'l tizimining morfologik, semantik va sintaktik jihatdan qanday ishlashini mukammal tarzda ko'rsatib bergan. Ushbu fe'llarning mustaqil va yordamchi vazifalarda qo'llanishi, ularning zamon va holatni ifodalashdagi roli, shuningdek, gap strukturasiiga ta'siri grammatik tahlilning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Basra va Kufa nahviy maktablari o'rtasidagi talqin farqlari arab grammatik tafakkurining boyligini va ilmiy maktablar o'rtasidagi yondashuv xilma-xilligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari ushbu fe'llarning nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham arab tili o'qitish va tilshunoslik tadqiqotlarida qo'llanilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, Ibn Molikning "Alfiyya" asari arab tili fe'l tizimini o'rganishda nazariy asos bo'lib, uning grammatik merosi bugungi zamonaviy nahvshunoslik uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. F. H. Dieterici. In der traditionellen arabischen Poesie muss in einem Alfiya. Berlin: Stocholm., 1851
2. S. Glazer. The Alfiyya of Ibn Malik: Its Importance and Place in Arabic Grammatical Science // The Muslim World., 1941.
3. K. Veerastegh. Learning Arabic in the Islamic World // university of Nijmegen. - Santh Joseph XL/V9 2018, Greek Elements in Arabic Linguistic Thinking // university of Nijmegen. - Santh Joseph XL/V3 1997.
4. S. Haryonto. Nazam Alfiyyah Ibn Malik: Structure and Function of Arabic Didactic Poetry for Islamic Boarding School Communities // The world of Islam: studies in honour of Philip Hitti. - London: 2024-30 p.
5. J. Stephen. Some of the examples of Alfiyya ibn Malik to clarify the grammatical Rules // university of Bagdad: al-ustath Journal. - 2023
6. عبد العزيز الدباح. دراسة نحوية في شرح الألفية. المغرب. الرباط. جامعة محمد. - 2008.
7. بشار زركان. ألفية بن مالك في ميزان الدرس النحوي المعاصر. سوريا. دمشق: دار الكتب العلمية - 2019.
8. عبد الرحمن بن حسن الفقيه. التحقيق النحوي لقواعد الفعل في ألفية بن مالك. السعودية. جامعة أم القرى. - 2020.
9. سليمان الزهراني. الفعل المضارع بين النصب والجزم في ألفية بن مالك. السعودية. جامعة الملك خالد. - 2015
10. جلال الدين السيوطي. ألهمع. مؤسسة الرسالة. بيروت 1992, الجزء الثاني، 73 ص.
11. Muhammad Yusupov, Ne'matullo Ibrohimov, Arab tili grammatikasi I jild, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T.: 1997, B. 77.
12. عباس حسن. المحو الوافي. دار المعارف بمصر. 562 ص.
13. محمد البقاعي. حاشية الخضري. دار الفكر. 2003, الجزء الأول، 212 ص.
14. خالد الأزهرى. التصريح. دار الكتب العلمية. بيروت 1971, الجزء الأول، 256 ص.
15. نفس الكتاب 237 ص.
16. عباس حسن. المحو الوافي. دار المعارف بمصر. 562 ص.
17. جلال الدين السيوطي. ألهمع. مؤسسة الرسالة. بيروت 1992, الجزء الثاني، 78 ص.
18. عباس حسن. المحو الوافي. دار المعارف بمصر. 562 ص.
19. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, Tafsiri hilol, Hilol-nashr, T. 2014. 2-juz B. 243.
20. عباس حسن. المحو الوافي. دار المعارف بمصر. 565 ص.
21. نفس الكتاب: 569 ص.